



## BUDJET SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Dotsent **Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich**  
Guliston davlat universiteti,  
**Matkuliyeva Sanobar Ismailovna**  
Ma'mun Universiteti nodavlat ta'lim muassasasi

**Annotatsiya.** O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida budjet siyosatini takomillashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada budjet siyosati samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, budjet, davlat budjeti, mahalliy budjet, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi, aholi farovonligi.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ БЮДЖЕТНОЙ ПОЛИТИКИ

Доцент **Абдувохидов Акмаль Абдулазизович**  
Гулистанский государственный университет,  
**Маткулиева Санобар Исмаиловна**  
Негосударственное образовательное учреждение  
«Университет Маъмуна»

**Аннотация.** Обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане путем диверсификации структуры экономики и повышения ее конкурентоспособности, последовательного внедрения рыночных механизмов во все отрасли экономики, сокращения бедности и повышения благосостояния населения, ускоренного развития цифровой экономики, трансформации государственных компаний, снижения участия государства в экономике составляют приоритетные направления проводимых в настоящее время экономических реформ. В рамках данных экономических реформ важное место занимают такие вопросы, как совершенствование бюджетной политики, повышение эффективности использования бюджетных средств. Исходя из этого, в данной статье проанализированы теоретические аспекты повышения эффективности бюджетной политики.

**Ключевые слова:** национальная экономика, устойчивое развитие, бюджет, государственный бюджет, местный бюджет, доходы бюджета, расходы бюджета, дефицит бюджета, благосостояние населения.

## IMPROVING THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING EFFICIENCY OF BUDGET POLICY

Associate Professor **Abduvokhidov Akmal Abdulazizovich**

Gulistan State University,

**Matkuliyeva Sanobar Ismailovna**

Non-governmental educational institution

“Mamun University”

**Abstract.** Ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan by diversifying the structure of the economy and enhancing competitiveness, consistent implementation of market mechanisms in all sectors of the economy, reducing poverty and improving the welfare of the population, accelerated development of the digital economy, transformation of state-owned companies, and reducing state participation in the economy are the priorities of the economic reforms currently underway. Within the framework of these economic reforms, such issues as improving budget policy and improving the efficiency of using budget funds occupy an important place. In reliance upon the considerations specified above, this article analyzes the theoretical aspects of improving the effectiveness of budget policy.

**Keywords:** national economy, sustainable development, budget, state budget, local budget, budget revenues, budget expenditures, budget deficit, welfare of the population.

### Kirish.

Byudjet siyosati “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi va 2020–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida belgilangan yo‘nalish va maqsadlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu borada uzoq muddatda fiskal barqarorlikni ta‘minlash. Bunda, uzoq muddatda fiskal barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha kiritilgan fiskal qoidalarga qat‘iy amal qilish; byudjet mablag‘lari samaradorligi va natijadorligini oshirish. Yillik byudjetni shakllantirishda “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimini bosqichma-bosqich to‘laonli joriy etish; byudjet ochiqligini ta‘minlash hamda byudjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish; byudjet siyosatida inson kapitali rivojlanishiga doir xarajatlar ustuvorligini ta‘minlash; “Yashil byudjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish kabi yo‘nalishlar ko‘zda tutilgan. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida tilga olib o‘tilgan ustuvor yo‘nalishlar orqali byudjet siyosatini takomillashtirish ilmiy yondashuvni talab etadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Budjet mablag‘laridan foydalanish orqali davlat jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashga harakat qiladi. Ma‘lumki, moliya kategoriyasining funktsiyasida taqsimlash (qayta taqsimlash) jarayoni yuzaga keladi. Moliya tizimida mamlakatdagi yaratilgan yalpi qiymatning bir qismi soliqlar yordamida byudjet tizimiga taqsimlanadi. iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o‘z daromad va mulklari hisobidan davlatga majburiy to‘langan soliqlar davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Moliyaning qayta taqsimlash funktsiyasi ko‘magida jamlangan mablag‘lar byudjet yordamida qayta taqsimlanadi.

Shu boisdan, byudjet xarajatlari doirasida davlatda mavjud bo‘lgan vazifalarni optimallashtirish orqali mablag‘lardan samarali foydalanishning zaruriyati kelib chiqadi. Fikrimizcha, mazkur vazifalarni moliyaviy mablag‘larning hajmi bilan emas, balki bozor mexanizmlarining ishlash tamoyillari asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Byudjet xarajatlarini optimal taqsimlash, eng dolzarb masalalarni o‘zida aks ettirgan sohalarga mablag‘larni yo‘naltirish byudjet siyosatining ustuvorliklarini o‘zida aks ettiradi.

A.Smit o‘zining nazariyasida davlat zimmasida bir qator majburiyatlar mavjudligini qayd etib o‘tib, davlat byudjetidan moliyalashtirish nuqtai nazaridan quyidagi uchta sohaga e‘tibor qaratadi (Tosmatov, 2019):

- mudofaa;
- qonun ustuvorligi va ijtimoiy tenglik;
- ijtimoiy infratuzilma.

Amir Temur davrida ham budget siyosatining o'ziga xos fundamental asoslari yaratilgan. Jumladan, Sohibqiron saltanatida bir nechta vazir faoliyat olib borgan. "Birinchi vazir mamlakat va aholi ishlari vaziri bo'lgan, u soliq va o'lponlarni to'plash, taqsimlash, kirim-chiqimlarni belgilash va hisob-kitob qilish, mamlakatning obodonligi bilan shug'ullangan. ikkinchi vazir – qo'shinlar vaziri bo'lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evaziga beriladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan. Uchinchi vazir – egasiz qolgan mulklarni boshqarish va davlatga tushadigan zakot hamda bojlarni saqlash bilan shug'ullangan. Qolgan uchta vazir chegara tumanlaridagi moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Hadya qilingan mamlakatlarda soliqlarni yig'ib, aholining kayfiyatini kuzatib turuvchi, xarajatlarni chiqim daftariga yozib boruvchi ikki nafar vazir tayinlangan. Barcha vazirlar devonbegiga bo'ysunganlar" (Muqimov, 2018).

Budget siyosatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish borasida bir qator O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham amalga oshirilgan. Jumladan, Jo'rayev (2001) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budgetining o'rnini tadqiq etgan. U budget orqali davlatni boshqarishda uchta tamoyilni ko'rsatib o'tadi, bular – samaradorlik, barqarorlik va ijtimoiy adolatlilik. Shuningdek, budgetning barqarorligini ta'minlashda xarajat vakolatlarining bo'linishi ma'lum tamoyillarga asoslanishini ta'kidlab o'tadi. Xususan, ular quyidagilardir:

- xarajat vakolatlarining budget xizmatidan foydalanuvchilarga mumkin qadar yaqinligi;
- bir qator xarajatlarni markazlashgan tartibda amalga oshirishning foydaliligi;
- tashqi samaraning hisobga olinishi.

Tadqiqotchi U.Pardayev tomonidan olib borilgan izlanishlarda davlat budgetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar berilgan. Ushbu tadqiqotda davlat budgetini prognoz qilishni o'rganish maqsad qilingan bo'lsada, unda ko'proq urg'u budget daromadlariga qaratilgan va ishlab chiqilgan takliflar ham soliq tushumlarini optimallashtirishni qamrab olganligi bilan belgilanadi (Pardayev, 2018).

O'zbekistonlik olimlardan yana biri – Raxmonovning ilmiy xulosalarida ham budget siyosatining yo'nalishlari to'g'risida fikrlar bayon etilgan (Raxmonov, 2018). Xususan, ijtimoiy sohani budgetdan moliyalashtirilishida ustuvor yo'nalishlar sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash va fan sohalariga e'tibor berilishi qayd etilgan. Oliy ta'lim sohasida muassasalarga moliyaviy mustaqillik berish va bu orqali ularning to'lov shartnoma qiymatlarini belgilashda oliy ta'lim muassasalari reytingini asos qilib olish muhimligi asoslab berilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida majburiy tibbiy sug'urta amaliyotini joriy etish, bunda budget mablag'larini sug'urta mexanizmi orqali aholining keng qatlamini qamrab olish imkoniyatlari aniqlangan va baholangan. Shu bilan birga, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda inson kapitali kategoriyasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish lozimligi alohida qayd etib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz olimlari tomonidan shakllantirilgan ilmiy xulosalar amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mamlakatimizda 2018 yildan rivojlana boshlagan fuqarolar uchun budget kontseptsiyasining shakllanishini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Bu borada, mamlakatimizda yetarli darajada tajriba to'plangan, deb o'ylaymiz. Masalan, o'z-o'zini boshqarish subyekti bo'lgan mahalla instituti jamoatchilik nazoratining ro'yobga chiqarilishida muhim rol o'ynaydi. Budget siyosatining amalga oshirilishida jamoatchilikning ishtiroki to'g'risidagi jihatlariga xorijlik olimlar tomonidan ham e'tibor qaratilgan.

Jumladan, jamoatchilik boshqaruvi tamoyillari to'g'risida Duplinskaya (2011) quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi. Ular: barqarorlik, jamoatchilikning ishtiroki, manfaatdorlik, javobgarlik kabi jihatlardir.

Mamlakatimizda jamoatchilik boshqaruvining ishtirokini nazarda tutuvchi islohotlar boshlangan bo'lsada, ba'zi xarajatlarni markazlashtirilgan holda ta'minlanishi dominant xususiyatga egaligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi

soha xarajatlarini keltirish mumkin. Shuningdek, budjetga moliyaviy yukni kamaytirish maqsadida, budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish mexanizmiga shart-sharoit yaratish haqida xulosalar berilgan.

Shuningdek, ish haqiga asoslangan holda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi nisbatni aniqlash metodologiyasi Moiseev (2017) tomonidan ilgari suriladi. Bu orqali "davlat qiymati" kategoriyasini baholash imkoni vujudga kelishini qayd etib o'tadi. Bunda davlat va xususiy sektorda mehnatga haq to'lashning har bir soati uchun o'zaro nisbatni aniqlash orqali qaysi sektor ko'p haq to'lanayotganligini aniqlash uslubini taklif etadi. Mazkur olim bir nechta davlatning ushbu ko'rsatkichlarini o'zaro tahlil etib chiqadi. Natijada, bir qator (Germaniya, Estoniya, Slovakiya, Shvetsiya va AQSh) mamlakatlarda davlat sektori xususiyyga nisbatan 30 foiz ko'p bo'lsada, ish haqidagi farqlar sezilarli darajada emasligi ma'lum bo'ladi (Moiseev, 2017).

Ta'kidlash lozimki, budjet makroiqtisodiy miqyosda daromadlarni muvozanatlash vositasi sifatida ham o'z vazifasini bajaradi. Mazkur masala nafaqat tarixiy jihatdan, balki zamonaviy jihatdan ham tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada ilmiy bilishning umumiy usullari: tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduktiya, qiyosiy va dinamik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash, umumlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasining 1993-yildagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasida: "mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash", degan qoida belgilangan. Mazkur qoida 2013-yilda kiritilgan o'zgartirish natijasida yuzaga kelganligi inobatga olinsa, hududiy barqarorlikni ta'minlashda hududiy budjet siyosati yuritilishining rolini oshirish nazarda tutilayotganligini anglash mumkin.

Bu borada, O'zbekistonlik olimlardan Suvanov (2005) budjet munosabatlarini institutsional jihatdan tahlil qilgan holda, mahalliy budjetlar oldida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatib o'tadi:

- hududlar darajasida budjet resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaslik;
- budjet tizimida mahalliy budjetlarning mustaqilligi haqida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlariga doir tortishuvlarning ilmiy asoslanishini hamda bu boradagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;
- rivojlangan mamlakatlar budjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan budjet resurslarini mutanosib tarzda taqsimlash muammosi (Suvanov, 2005).

Budjet siyosatiga hududlarning moliyaviy barqarorligi jihatidan baho berish xorijlik olimlardan Bogomolovning (2010) ham ilmiy ishlarida namoyon bo'ladi. Olim tomonidan budjet tizimi barqarorligini ta'minlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish taklif etilgan (Bogomolov, 2010):

- hudud va hududiy tuzilmalar budjetlari daromad/xarajatlari moddalarini guruhlashtirish va unifikatsiyalash orqali budjet ijrosi hisoboti ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;
- hududlarda budjet barqarorligi jami indikatorlar tizimi asosida baholash uslubi ishlab chiqilgan;
- hudud va hududiy tuzilmalar budjet barqarorligini moliyaviy oqimlarni inobatga olgan holda budjet risklarini baholash tizimi shakllantirilgan;
- budjet xarajatlari mezonlari tizimi ishlab chiqilgan.


Shuningdek, budget siyosatiga institutsional jihatdan yondashgan olimlarimizdan biri Qurbonov (2010) hisoblanadi. U budgetlararo munosabatlarni tahlil qilish asosida quyidagi tamoyillarni keltiradi:

- budget xarajatlarini budget tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash va birlashtirish;
- tartibga soluvchi daromadlarning budget tizimining turli darajalari bo‘yicha chegaralanishi;
- turli darajadagi budgetlarning tengligi;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni rag‘batlantirish (Qurbonov, 2010).

Qayd etib o‘tilgan tadqiqotlarda budgetning tuzilishi nuqtai nazaridan fikrlar ilgari surilgan. Bunda budget xarajatlarini mokiylashtirish, ularning mustaqilligini oshirish kabi jihatlarga e‘tibor berilgan. Shuningdek, budgetlararo munosabatlarni shakllantirishda ularning o‘rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi, ular tengligini ta‘minlash va hududlar salohiyatidan kelib chiqib, tartibga soluvchi daromadlarni belgilash amaliyotiga urg‘u beriladi.

Budget siyosatining ba‘zi jihatlari to‘g‘risida Turabovning (2007) tadqiqotlarida “Mamlakatimizda budget intizomini mustahkamlashning zarurligi, bir tomondan, budget daromadlarini shakllantirish masalalari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shu narsani budget xarajatlaridan foydalanish ham taqozo etadi. ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari, markazlashtirilgan investitsiyalar, hokimiyat va boshqaruv idoralari, mamlakat mudofaa qudrati va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan hozirgi holatlar budget intizomini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi”, deya ta‘kidlanadi (Turabov, 2007).

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda budget siyosati to‘g‘ridan-to‘g‘ri kategoriya sifatida o‘rganilmagan bo‘lsada, budget xarajatlarini amalga oshirishda budget intizomining alohida ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bizningcha, budget siyosati nafaqat uning xarajatlarini ustuvor yo‘nalishlarga safarbar etish, balki uning amalga oshirilishida maqsadli foydalanish va belgilangan qoidalarga qat‘iy rioya etilishini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, budget siyosati moliya kategoriyasining ijtimoiy funksiyasining yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynashi tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lmoqda.



1-rasm. Budgetni tartibga solish va uni tavsiflovchi omillar<sup>1</sup>

Bizningcha, moliyaning ijtimoiy funksiyasi nafaqat budgetning ijtimoiy soha xarajatlari orqali, balki yalpi ichki mahsulotni davralar bo‘yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega. Ya‘ni pensiya xarajatlarini qoplash masalasida pensiya jamg‘armasiga to‘lovlarni belgilash

<sup>1</sup> muallif ishlanmasi.



orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda, moliyaning taqsimlash (qayta taqsimlash) funksiyalari o'z aksini topadi. Shu boisdan, moliyaning funksiyalari bir bo'lagi sifatida budjet xarajatlarini shakllantirish va ularni amalga oshirish orqali aks ettiriladi.

Budjet siyosatini amalga oshirish yo'nalishlari hozirgi kunga qadar amalga oshirish modellari daromad va xarajatlar ustuvorligidan kelib chiqqan holda ta'minlandi. Masalan, daromadlarning hajmidan kelib chiqib xarajatlarni shakllantirish amaliyoti mavjud. Bu shuni anglatadiki, davlatning funksiya va vazifalarining bajarilishi ularning zarurligidan emas, balki daromadlarning qanchaligidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Mazkur tendentsiyaning shakllanishi ko'proq daromadlar bo'yicha xarajat modelida vujudga keladi, bu esa aholini zarur ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlanishiga imkon bermaydi. Ushbu holat davlat budjet xizmatlariga talab oshishi bilan birga, soliq tushumlarining yetarli miqdorda shakllanishi ta'minlanmagan bilan izohlanadi.

Ushbu ikkinchi modelda, hozirgi zamonaviy tendentsiyalar o'zining ifodasini topadi, deb o'ylaymiz. Bunda davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosining moliyaviy ta'minotida bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda, turli manbalardan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday holatda budjetga moliyaviy yukni kamaytirish uchun xususiy amaliyotni rivojlantirish nazarda tutiladi. Hozirgi kunda jahonning ko'plab mamlakatlarida ushbu tajribadan foydalanish keng tus olmoqda. Bu borada, O'zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tibbiy xizmatlarning belgilangan toifalarini xususiy soha tomonidan taqdim etilishiga yoki oliy ta'lim tizimida to'lov shartnoma mexanizmining joriy etilishi kabi misollar shular jumlasidan.

Keyingi modellar moliyaning taqsimlash (qayta taqsimlash) funktsiyasi orqali vujudga kelgan bo'lib, milliy daromadni aholi qatlamlari o'rtasida muvozanatli taqsimlashni nazarda tutadi. Davlat soliq mexanizmlaridan foydalangan holda yuqori daromad oluvchi aholi qatlamining ma'lum daromad qismini kam daromadli qatlamga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish uchun budjet daromadlariga jalb etadi. Natijada, barchani ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, moliyaviy adolat ta'minlanadi.

Bizningcha, mazkur moliyaviy adolatning ta'minlanishiga erishish bu ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos hisoblanadi. Sababi, davlat o'z zimmasidagi funksiya va vazifalarni xususiy sektor orqali pulli tarzda yo'naltirishga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli, mazkur modelning xususiyatlari amal qiluvchi mamlakatda soliq yukining darajasi ham yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, davlat barcha ijtimoiy majburiyatlarni o'z zimmasida markazlashgan holda saqlab turadi.

Budjet siyosatining amaldagi modellaridan yana biri – bu soliqlar vositasida makroiqtisodiy tartibga solish imkoniyatlaridan foydalanish. Davlat soliq siyosatini amalga oshirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tartibga soladi va ularning barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi.

Fikrimizcha, budjet siyosatining asosiy xususiyatlari quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- daromadlarning hajmidan kelib chiqib, xarajatlar yo'nalishini belgilash;
- xarajatlarning zaruratlik darajasiga asoslanib, daromadlarning belgilangan hajmini ta'minlash;
- aholining kam daromadli qatlamida passiv moliyaviy manfaatdorlikning ta'minlanishiga erishish;
- budjet daromalarini shakllantirish orqali makroiqtisodiy tartibga solish mexanizmini yuzaga keltirish vositasi bo'lishi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida budjet siyosatini shakllantirishning quyidagi maqsadlarni o'zida aks ettirishini qayd etish mumkin:

birinchidan, jamiyatda moliyaviy resurslarni muvozanatli taqsimlash;

ikkinchidan, davlat zimmasidagi funktsiyalarni bajarish va aholi hayot sifatini oshirishda aholi, iqtisodiyot subyektlari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda ularning manfaatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy muvozanatni ta'minlash;

uchinchidan, budjetning barcha darajalari, tuzilmasi va budjet munosabatlarini rivojlantirish uchun moliyani boshqarishni takomillashtirish;

to'rtinchidan, budjet xarajatlarini boshqarishda markazlashtirish amaliyotining qisqartirib borilishiga erishish;

beshinchidan, budjet xarajatlari hisobidan moliyalashtiriluvchi tadbirlarni davlat zimmasidan xususiy tarmoq hissasiga bosqichma-bosqich o'tkazib borish;

oltinchidan, budjet siyosatini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtiroki va nazoratini rivojlantirish.

Shu jihatdan olib qaralganda, budjet siyosatini shakllantirish va ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

– budjet kontseptsiyasini zamon va makondan kelib chiqib, uning iqtisodiyotdagi hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishdagi rolini belgilash;

– budjet munosabatlarini mezonlashtirish, mablag'larni taqsimlash uslubiyatini takomillashtirish orqali budjet barqarorligini ta'minlash;

– budjet siyosatining maqsad va vazifalarini aniq shakllantirish. Bunda maqsadli yo'naltirilgan budjetning barcha o'lchov va instrumentlarini kompleks tarzda bo'lishini ta'minlash;

– jamiyatning rivojlanish tendentsiyasida budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning hajmini aniqlash metodologiyasini joriy etish.

Umuman olganda, hududlarning moliyaviy salohiyatidan kelib chiqib, budjet xarajatlarining tutgan o'rni va roli turlicha bo'ladi. Masalan, moliyaviy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda budjet xarajatlariga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lmaydi. O'z navbatida, ushbu hududda davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda amalga oshirish mumkin. Shuningdek, moliyaviy salohiyati yuqori bo'lmagan hududlarda budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi. Natijada, budjetning yuqori turuvchi budjet mablag'lariga bo'lgan talabi ortadi va davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda yetkazish imkoniyati qisqaradi.

Budjet siyosatining amalga oshirilishi budjet mablag'laridan samarali foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi. Bu budjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish orqali yuzaga kelishini ta'kidlash lozim. Ushbu jarayonda budjet xarajatlarining bozor munosabatlariga asoslangan holda davlat zimmasidan xususiy sektor zimmasiga o'tib borishi bilan budjet siyosatining shakllanishi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida budjet xarajatlarining yo'nalishlari hamda budjet siyosatining fundamental asoslari belgilangan. Mazkur Kodeksning 69-moddasiga binoan, davlat budjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

– ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

– nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

– iqtisodiyot xarajatlari;

– markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;


– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

– sudlarni saqlab turish xarajatlari;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

boshqa xarajatlar (Kodeks, 2013).

Qayd etib o'tilgan xarajatlar yo'nalishlari budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan bo'lsada, ular uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hajmini yillar kesimida o'zgarishi bilan budjet siyosati yo'nalishlarining ustuvorliklari namoyon bo'ladi, deb hisoblaymiz.



**2-rasm. O'zbekistonda ITTKi xarajatlarning YaiMga nisbati, %<sup>2</sup>**

Masalan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, sport va aholini moddiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlar hajmining o'zgarish tendentsiyalari mazkur yo'nalishdagi budjet siyosati bilan chambarchas bog'liq tarzda amalga oshadi. Jumladan, davlat budjetining fan sohasi uchun xarajatlar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2017-yilgacha o'rtacha 0,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib, ushbu yo'nalishdagi budjet siyosatining o'zgarganligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoniga asosan fan tarmog'i uchun xarajatlarni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,8 foizga yetkazilishi nazarda tutildi. Mazkur soha uchun budjet xarajatlarning oshirilishi davlat tomonidan ilm-fanni qo'llab - quvvatlash, natijada, innovatsion faoliyatni rivojlantirishni o'zida aks ettiradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, 2030 yilga borib O'zbekistonni global innovatsion reytingning dastlabki 50 taligiga kirishini ta'minlovchi shart-sharoitni yaratishni aks ettiradi.

O'zbekiston 2020 yildan boshlab innovatsion faollikni rag'batlantirish bo'yicha mamlakatlarning tizimli siyosati natijalarini ko'rsatuvchi Gii reytingiga kiritildi.

Mamlakatimiz 2021 yilga nisbatan 4 pog'onaga, 2020 yilga nisbatan esa 11 pog'onaga ko'tarilib, 2022 yil reytingida 132 davlat orasida 82-o'rinni egalladi. YaiM tarkibida iTTKi xarajatlari ulushi kamligicha qolmoqda: kuzatilgan davrda iTTKi xarajatlarning YaiMdagi ulushi 0,14 %dan oshmadi (2-rasm).

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda iTTKi xarajatlarning YaiMdagi ulushi o'rtacha 2,63 %ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich O'zbekistonnikiga nisbatan 15-20 marta ko'pdir. Germaniya yoki Daniya kabi rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 3 %dan yuqoriligi e'tiborga molikdir.

Mamlakatda bozor munosabatlari chuqurlashib borgani sari budjet siyosatida ham tub o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Jumladan, davlatning zimmasida bo'lgan ba'zi vazifalar pulli tarzda aholiga yetkazib berilishi vujudga keladi, natijada, budjet xarajatlarning o'zgarishi kuzatiladi. Aksincha, boshqa omillarning rivojlanishi bilan davlat zimmasidagi vazifalarning kengayishi ham yuz beradi. Natijada, budjet xarajatlarning oshishi kuzatiladi. Masalan, ekologik vaziyatning o'zgarishi bilan davlat ekologik oqibatlarini bartaraf etish va uning sabablarini qisqartirish maqsadida budjetdan mablag'larning ko'paytirilishiga zarurat tug'iladi.

<sup>2</sup> <https://www.mininnovation.uz/>



## 1-jadval

Fiskal taqchillikni qoplash manbalari (2022 yil)<sup>3</sup>

Tashqi manbalar	ichki manbalar	Yil boshiga qoldiq mablag'lar
<ul style="list-style-type: none"> <li>xalqaro moliyaviy tashkilotlarning qarz mablag'lari hisobidan – <b>24,9 trln.so'm</b></li> <li>tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar – <b>6,9 trln.so'm</b></li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>davlat g'aznachilik obligatsiyalarini muomalaga chiqarish – <b>6,0trln.so'm</b></li> <li>Davlat aktivlarini xususiyashtirish hisobidan – <b>6,0 trln.so'm</b></li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – <b>0,1 trln.so'm</b></li> <li>Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari – <b>0,8 trln.so'm</b></li> </ul>

Bizningcha, bozor munosabatlarining jadallashuvi ortida nafaqat davlat zimmasidagi vazifalarning qisqarishi va mazkur xizmatlarni pulli tarzda aholiga yetkazib berilishi yuzaga keladi, balki davlat zimmasida yangi vazifalarni bajarish zaruriyati ham shakllanadi. Natijada, budget siyosatini olib borilishida ham o'ziga xos bo'lgan o'zgarish tendentsiyalari rivojlanadi. Bu esa, budget xarajatlarga bog'liq tarzda budget siyosatining shakllanishini taqozo etadi.

Budget siyosatining bunday tsiklik o'zgarishi budget mablag'larining qo'shimcha manbalar orqali to'ldirilishini taqozo etadi. Bu esa, budget daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi o'zaro farqni yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, budget siyosatida makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida qayd etiluvchi budget defitsiti muhim ahamiyatga ega. Buning sababi sifatida budgetga mablag'lar jalb qilishda daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi salbiy tafovut yuzaga kelishini qayd etish mumkin.

O'zbekistonda 2017-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmonning qabul qilinishi bilan budget tizimida mamlakatimizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini saqlab qolayotganligini va ushbu o'zgarishlar mazkur Farmonga muvofiq budget xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi va budgetlararo munosabatlarni takomillashtirishni o'zida aks ettirishi bilan izohlanadi.

Mazkur strategiya hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli Qaroriga muvofiq, budget siyosatida shaffoflik muhim omillardan biri ekanligi qayd etib o'tildi. Budget xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi budget siyosatining birlamchi omili bo'lsa, ikkinchi omil sifatida shaffoflik qayd etilayotganligi budget siyosati yuritilishidagi muhim yo'nalishlardir. Qayd etish lozim, davlat budgetini shakllantirish va ijro etilishi yuzasidan fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar budgetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "Ochiq budget" portalining ishga tushirilishi ham shaffoflik borasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Budgetning ochiqqligini o'rganishning quyidagi hujjatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi nazarda tutilgan: budgetning dastlabki loyihasi; budget loyihasi; qabul qilingan budget; fuqarolar uchun budget; joriy hisobot; yarim yillik hisobot; yillik hisobot; auditorlik hisoboti.

<sup>3</sup> 2023-2025 yillarga mo'ljallangan fiskal strategiya.

Yuqorida qayd etilgan budjet jarayonlarining har bir bosqichida fuqarolarning, jumladan jamoatchilik nazoratining faol ishtiroki talab etilmoqda. Jumladan, hududlarda budjetni shakllantirishda jamoatchilik fikri asosida umumiy xarajatlarning 10 foizi miqdorida o'zgartirish kiritish imkonini berilishi shaffoflikni ta'minlashga shart-sharoit yaratib beradi (2-jadval).

Olib borilgan tadqiqotlar asosida budjet siyosatining quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishini qayd etish mumkin:

– ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirishda tizimli tahlil unsurlaridan foydalanish, bunda: sog'liqni saqlash tizimidagi ijobiy natijalar o'laroq, o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirishning passiv xususiyatga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, boshqacha aytganda, insonlarning umri uzayishi bilan ularning yalpi daromadni yaratishdagi ulushini ham shunga muvofiq lashtirish lozim

## 2-jadval

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan tegishli budjetlarni xarajatlari, 2023 yil uchun reja, mlrd.so'm<sup>4</sup>**

№	Hududlar	Jami	Shundan		
			Tuman va shaharlar budjetining 5 foizi	“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari	Hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash
	<b>Jami</b>	<b>6366,3</b>	<b>2046,0</b>	<b>4000,0</b>	<b>320,3</b>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	353,6	127,2	201,0	25,5
2	Toshkent shahri	587,0	188,3	374,7	24,0
3	Andijon viloyati	367,6	119,8	228,2	19,5
4	Buxoro viloyati	271,4	105,6	146,3	19,5
5	Jizzax viloyati	576,8	185,8	367,0	24,0
6	Qashqadaryo viloyati	227,2	81,6	129,1	16,5
7	Navoiy viloyati	536,3	180,9	334,4	21,0
8	Namangan viloyati	702,3	209,3	468,9	24,0
9	Samarqand viloyati	493,1	160,8	309,9	22,5
10	Surxondaryo viloyati	187,7	71,1	100,2	16,5
11	Sirdaryo viloyati	590,0	172,2	384,8	33,0
12	Toshkent viloyati	706,1	230,0	447,6	28,5
13	Farg'ona viloyati	358,4	116,9	222,0	19,5
14	Xorazm viloyati	408,6	96,5	285,9	26,3

Shunda o'rtacha umr ko'rishning uzayishi aktiv xususiyatga ega bo'ladi. Mazkur holatda esa, insonlarning ta'lim olishlari uchun ijtimoiy va moliyaviy shart-sharoitlarni nostandartlashtirish lozim bo'ladi;

– budjetning iqtisodiyot xarajatlari hisobidan budjet xarajatlarini oshib ketishini oldini olish uchun iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, davlat-xususiy sherikchiligi asosida loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish;

– iqtisodiyotning zamonaviylashuvi natijasida ekologik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni amaga oshirishda budjet siyosatiga ustuvorlik berish. Bunda ekologik vaziyatni murakkablashtiruvchi jarayonlarni budjetning ta'sir mexanizmi orqali tartibga solishni kuchaytirish.

<sup>4</sup> [https://mf.uz/media/document\\_files/Budjet\\_23\\_uz.pdf](https://mf.uz/media/document_files/Budjet_23_uz.pdf)

Budjet siyosatini amalga oshirishning bir qator tamoyillari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: maqsadlilik; shaffoflilik; tushunarlilik; ijtimoiylik; yetarlilik; tejamkorlik; natijaviylik.

Tejamkorlik – bu sifatli, lekin raqobatga asoslangan tovar (xizmat)larni xarid qilish. ijtimoiylik unsuri budjet xarajatlarining katta qismini aks ettiruvchi ijtimoiy xarajatlardan tashqari, budjet mablag'larining boshqa yo'nalishlari ham oxir-oqibatda ijtimoiy natijalarni keltirib chiqarishini taqozo etadi.

Budjet tizimi mamlakat budjet tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib, uning ma'lum bir qismini o'zida ifoda etadi. Shu ma'noda, budjet tizimi mamlakat budjetining o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning budjet tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Mamlakatning budjet tizimi ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bo'g'indan (markaziy va mahalliy budjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo'g'indan (markaziy budjet, federatsiya a'zolari budjetlari va mahalliy budjetlar) iborat bo'lishi mumkin (Abduvoxidov va boshq,2023).

Har bir mamlakatning budjet tizimi ma'lum bir tamoyil (tamoyil)larga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimiga xos bo'lgan tamoyillar esa quyidagilardan iborat:

**Budjet tizimining yagonaligi tamoyili** budjet hujjatlari va budjet hisobotlarining shakllari, budjet tasnifi yagona bo'lishi hamda budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, budjet hisobini yuritish va budjet hisobotini tuzishning yagona tartibini ko'zda tutadi Masalan, O'zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman, shaharlarining budjetlari bir xil, yagona belgilangan tartib asosida shakllantirilib, yagona me'yorlar asosida ulardan xarajatlar amalga oshiriladi. Qolaversa, mamlakat hududidagi barcha budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalar hududiy joylashuvidan qat'iy nazar bir xil budjet qonunchiliga rioya etadi.

**Budjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi tamoyili** esa budjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi lozimligini ifodalaydi. Ya'ni, 14 ta yirik ma'muriy hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) hamda mazkur hududlar tarkibiga kiruvchi tuman va shaharlar soniga teng jami 220 ga yaqin mahalliy budjetlar mavjud.

**Budjet tizimi budjetlarining balanslilik va o'zaro bog'liqligi tamoyili** budjet tizimi budjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishini, hamda budjet tizimi budjetlarini tuzish va ijro etishda budjetlarning mablag'lari mazkur budjetlarning balanslilikini ta'minlash uchun ular o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkinligini anglatadi.

**Budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati tamoyili** esa budjet tizimi budjetlarining mablag'lari muayyan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchungina ajratilishini nazarda tutadi.

Misol uchun, biror maktab ish haqi uchun ajratilgan mablag'lardan kapital ta'mirlash yoki kommunal to'lovlardan qarzlarni to'lash uchun foydalanishi mumkin emas.

**Budjet tizimi budjetlarining mustaqilligi tamoyili** budjet tizimining turli darajadagi budjetlari mustaqil ekanligini bildiradi.

Ya'ni, viloyatlar budjetlari yoki tuman budjetlari amaldagi qonunchilik doirasida o'zidan yuqori turuvchi budjet bo'g'iniga bog'liq bo'lmagan holda daromadlarni shakllantirish yoki xarajatlarni amalga oshirishi mumkin.

Budjet tizimi budjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi tamoyili budjet jarayoni ishtirokchilari budjet tizimi budjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida budjet tizimi budjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatini ifodalaydi.

Kassaning yagonaligi tamoyili esa budget tizimi budgetlarining barcha daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilishini va ularning xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini anglatadi.


Ma'lumki, 2007 yildan boshlab respublikamizning barcha hududlaridagi budget tashkilotlari va muassasalari to'liq g'aznachilik tizimiga o'tkazildi. Viloyat, tuman budgeti va ulardan moliyalashtiriladigan barcha budget tashkilotlari va muassasalarining joylashgan joyidan yoki hisob raqami qaysi bankda bo'lishidan qat'iy nazar ularning daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi(jamlanadi) va o'z navbatida xarajatlarni amalga oshirishda ham g'aznachilik tizimi orqali mablag'dan foydalanish mumkin.

**Budget jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi tamoyili** budget jarayonining har bir ishtirokchisi budget jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishini nazarda tutadi.

Ma'lumki, budget jarayonida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar ishtirok etadilar. Mazkur subyektlarning har biri budget jarayonidagi o'z harakatlari uchun javobgar bo'ladilar.

**Ochiqlik tamoyili** davlat budgetini va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini bildiradi.

Qolaversa, tasdiqlangan davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari daromadlari va xarajatlarining miqdori, tarkibi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida (gazeta, jurnal, byuleten, hamda maxsus internet saytlari) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinib boriladi. Shuningdek, davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari choraklik, yarim yillik, 9 oylik va yillik ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.



3-rasm. 2020-2023 yillarda davlat budgeti daromadlari dinamikasi<sup>5</sup>

<sup>5</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daomadlari va xarajatlarining prognozi va ularning choraklik va yillik ijrosi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti ([www.imv.uz](http://www.imv.uz))da doimiy joylashtirilmoqda va yangilab borilmoqda. Xususan, iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Davlat budjeti daromadlari 2022 yilda 202 trln. so'mni (YaiMga nisbatan 22,7 %) tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 37,2 trln. so'mga yoki 22,6%ga oshgan.

Hisobot yilida Davlat budjeti daromadlarining YaiMdagi ulushi 22,7%ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan solishtirilganda 0,3%ga va 2020 yilga nisbatan 0,6%ga oshgan. Hisobot yilida Davlat budjeti tarkibidagi Soliq qo'mitasi ma'murchiligidagi tushumlar 148,4 trln so'mni (jami Davlat budjeti daromadlariga nisbatan 73,4%), Bojxona qo'mitasi bo'yicha tushumlar 46,0 trln so'mni (22,8%) hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 7,6 trln so'mni (3,8%) (qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qaytarish (qoplab berish) (19,3 trln so'm) va fuqarolarga xarid summasidan 1% ("kesh-bek") qaytarishni (0,8 trln so'm) hisobga olgan holda ) tashkil qilgan.

Jahon amaliyotida budjet tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chikarilgan va aralash modellari mavjud. Markazlashtirilgan model barcha budjetlar yagona davlat budjetida markazlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir yuqori budjetga boshqaruvchilik roli birlashtirilgan bo'ladi (Frantsiya, Italiya, Qozog'iston, O'zbekiston). Markazlashtirishdan chiqarilgan model budjet tizimi markaziy va mahalliy budjetlarining erkinligi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (AQSh, GFR).

Aralash model markaziy budjetga mahalliy budjetlarni tartibga solish roli birlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (Rossiya Federatsiyasi).

## 3-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining 2020-2022 yillardagi ijrosi<sup>6</sup>

	2020 yil		2021 yil		2022 yil		Tushum o'sishi (2022-2020 yil)		Tushum o'sishi (2022-2021 yil)	
	summa	jamiga nisbatan %da	summa	jamiga nisbatan %da	summa	jamiga nisbatan %da	summa	%da	summa	%da
Davlat budjeti daromadlari	132,938		164,799		202,043		69,105	152,0	37,243	122,6
Bevosita soliqlar-jami	45,207	34,0	58,930	35,8	64,447	31,9	19,240	142,6	5,517	109,4
Bilvosita soliqlar-jami	46,428	34,9	56,290	34,2	71,390	35,3	24,962	153,8	15,100	126,8
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	21,257	16,0	23,036	14,0	23,913	11,8	2,656	112,5	876	103,8
Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	20,046	15,1	26,542	16,1	42,293	20,9	22,247	211,0	15,751	159,3

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2022 yildagi ijrosi b'uyicha dastlabki natijalar, <https://mf.uz/>



Amaldagi tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi budjeti: davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalaridan tashkil topadi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish ham asosan mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Umumdavlat pul mablag'larini budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishining asosini hududiy budjetlar mustaqilligi, ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobidan shakllanish tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi.

### Xulosa va takliflar.

Maqolani tartiblash jarayonida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Budjet siyosatini shakllantirish va ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- budjet kontseptsiyasini zamon va makondan kelib chiqib, uning iqtisodiyotdagi hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishdagi rolini belgilash;
- budjet munosabatlarini mezonlashtirish, mablag'larni taqsimlash uslubiyatini takomillashtirish orqali budjet barqarorligini ta'minlash;
- budjet siyosatining maqsad va vazifalarini aniq shakllantirish. Bunda maqsadli yo'naltirilgan budjetning barcha o'lchov va instrumentlarini kompleks tarzda bo'lishini ta'minlash;
- jamiyatning rivojlanish tendentsiyasida budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning hajmini aniqlash metodologiyasini joriy etish.

2. Mamlakatimizda budjet siyosatini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- budjet siyosatini amalga oshirishda yakuniylik, natijaviylik va manzillilik kabi tamoyillarga e'tibor berishni taqozo etuvchi metodologik asoslarni yaratish;
- budjet daromadlarini tor doiradagi manbalarga bog'liq bo'lib qolmasligini ta'minlash va soliqsiz daromadlar ulushini oshirib borish;
- budjet mablag'laridan budjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- budjet xarajatlari maqsad ko'rsatkichlarining ma'lum mezonlar yordamida baholanib borishini ta'minlash amaliyotini tatbiq etish.

### Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abduvoxidov A., Qodirova D., Obilov M. O 'ZBEKISTONDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLAR BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'LLARI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 4-12.

Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(4), 12–21. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp12-21>

Jo'raev B.A. (2001) *Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat byudjetining roli: i.f.n. ... avtorferat.* –Toshkent, BMA: – 21 b.

Kodeks (2013) *O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-yil 26 dekabr.* <https://lex.uz/docs/2304138>

Moliya va soliqlar: oliy ta'limning 60310100 - "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", 60411200-"Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.O'razmatov,

G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2022. – 774 b.

Muqimov Z. (2008) Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, -131 bet.

Pardayev U.U. (2018) Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish: (PhD) ... avtoreferati. – Toshkent: TMI, – 58 b.

Qurbonov X.A. (2010) Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, – 22 bet.

Raxmonov D.A. (2018) O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) ... avtoreferati. – Toshkent: TDIU, – 72 b.

Suvanov A.T. (2005) Mahalliy budjetlar ijrosi samaradorligini oshirish yo'nalishlari (Namangan viloyati misolida): i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, – 21 bet.

Tashmatov Sh.H., Asatullayev X.S., Allaberganov Z.G. (2019) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", - 352 b.

Turabov B.T. (2007) Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, – 20 bet.

Богомолов С.В. (2010) Оценка бюджетной устойчивости и эффективности управления бюджетными средствами муниципальных образований и субъекта РФ: автореферат ... к.э.н. – ГОУ ВПО «Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского». - Нижний Новгород, – с. 28.

Дуплинская Е.Б. (2011) Оценка результативности бюджетного регулирования в условиях модернизации публичного управления: автореферат ... к.э.н. - НОУ ВПО «Сибирская академия финансов и банковского дела». - Новосибирск, – 20 с.

Моисеев А.К. (2017) Макрофинансовая политика экономического роста: автореферат ... д.э.н. – Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН. – Москва, – с. 45.